
IPAK SHAHRINING BEBAHO ANÂ€™ ANALARI

Qadimiy va boy tarixi, betakror madaniyati bilan shuhrat qozongan qadimiy va navqiron Margâ€™ ilon shahrida anâ€™ anaviy â€œAtlas bayramiâ€™ milliy matolar festivali boshlandi. Mazkur festival yurtimiz hunarmandlari, sanâ€™ at ustalari, horijlik hamkorlar va sayyohlarni shahar bagâ€™ rida toâ€™ pladi.

YuNESKoning Oâ€™ zbekistondagi vakolatxonasi, YuNESKO ishlari boâ€™ yicha Oâ€™ zbekiston Milliy komissiyasi, DiViVI (DVV) xalqaro kompaniyasi, Â«HunarmandÂ» uyushmasi, viloyat hamda Margâ€™ ilon shahar hokimligi hamkorligida oâ€™ tkazilayotgan Â«Atlas bayramiÂ» uchinchi milliy matolar festivalida 60 dan ziyod xorijlik hamkorlar jam boâ€™ ldi.

Margâ€™ ilon shahridagi â€œHunarmandâ€™ uyushmasida boshlangan festivalni viloyat hokimi Shuhrat Gâ€™ aniev kirish soâ€™ zi bilan ochdi.

Viloyat rahbari oâ€™ z nutqida qadim oâ€™ zbek ipakchiligining dovrugâ€™ i, hunarmandchiligimizning xalqimiz hayotidagi ahamiyati hamda oâ€™ tkazilayotgan tadbir hunar va sanâ€™ atga mehri baland insonlarning oâ€™ zaro fikr va tajriba almashishiga asos boâ€™ lishini taâ€™ kidladi.

Tantanali tadbirda Oâ€™ zbekiston Respublikasi â€œHunarmandâ€™ uyushmasi raisi Akobir Hakimov, YuNESKoning Oâ€™ zbekistondagi vakili Dandev Badarch, tashkilotning faxriy aâ€™ zosi Maykl Barrilayn, YuNESKoning Almati mintaqaviy filiali rahbari Krista Pikkat xonim va boshqalar soâ€™ zga chiqdilar. Ular oâ€™ z nutqida mamlakatimizda hunarmandchilikka boâ€™ lgan yuksak eâ€™ tibor, oâ€™ zbek hunar ustalarining mehnat namunalari dunyoda oâ€™ z eâ€™ tirofini topayotganini mamnuniyat bilan eâ€™ tirof etdilar.

Oâ€™ zbekiston va Birlashgan Millatlar Tashkiloti hamkorligi keng qamrovli. Taâ€™ kidlash oâ€™ rinliki, yurtimizning BMTning Taâ€™ lim, fan va madaniyat masalalari boâ€™ yicha tashkiloti â€œ YuNESKO bilan oâ€™ zaro hamkorligi alohida eâ€™ tiborga molik. Xalqlarning maâ€™ naviy dunyosini yuksaltirish, ular oâ€™ rtasida oâ€™ zaro madaniy va maâ€™ rifiy aloqalarni mustahkamlash orqali jahonda totuvlik va bagâ€™ rikenglik gâ€™ oyalarini qaror toptirishga qaratilgan mazkur tashkilot bajarayotgan vazifalar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ezgu ishlar bilan hamohangdir.

â€œ Tashkilotimizning asosiy maqsadlaridan biri nomoddiy-madaniy merosni saqlab qolishdan iborat. Uch yil ilgari asos solingan bu bayram ana shu ezgu ishni yanada kengaytirishga, xalqaro mutaxassislarning milliy anâ€™ analarga boâ€™ lgan qiziqishini oshirishga xizmat qilmoqda, â€œ deydi tashkilotning Almati mintaqaviy filiali rahbari Krista Pikkat. â€œ Bu yil unda ishtirok etayotgan davlatlar soni ham birmuncha ortgan. Bir soâ€™ z bilan aytganda, festival uning ishtirokchilariga avloddan avlodga oâ€™ tib kelayotgan milliy meros, bebaho atlasning yaratilish tarixidan tortib bugungi taraqqiyot bosqichi haqida batafsil maâ€™ lumot beradi.

Bu yilgi festival doirasida amaliy seminar-treninglar, ilmiy konferentsiyalar tashkil etilib, ularda Qozogâ€™ iston, Qirgâ€™ iziston, Tojikiston davlatlari, Rossiya Federatsiyasi hamda mamlakatimizning etuk mutaxassislari tomonidan mashgâ€™ ulotlar olib borildi. Ana shu saboqlarda ishtirok etgan hunarmandlarga sertifikatlar tantanali ravishda topshirildi.

Ochilish marosimidan soâ€™ ng anjuman qatnashchilari shahardagi â€œYoshlikâ€™ xiyobonida viloyatlardan tashrif buyurgan hunarmandlar koâ€™ rgazmasi bilan yaqindan tanishdilar. Milliy dorbozlik va qoâ€™ gâ€™ irchoq tomoshalari, kurash, Qoâ€™ qon va Margâ€™ ilon shaharlari, Quva, Oltiariq tumanlaridagi madaniyat va aholi dam olish markazlarining folklor jamoalari tomonidan tayyorlangan badiiy chiqishlar barchaga xush kayfiyat ulashdi.

Kechki dasturda YuNESKoning Tinchlik yoâ€™ lida elchisi, sanâ€™ at arbobi, dizayner Bibi Rassel xonim tashabbusi bilan tayyorlangan defile koâ€™ rgazma namoyish etildi.

Festival Margâ€™ ilon shahri boâ€™ ylab davom etmoqda.

2017-09-28 10:50:24